

MUSO TOSHMUHAMMAD O'G'LI OYBEK HAYOTI VA IJODI

Sh. Jononova

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institute talabasi

Annotatsiya. Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek haqida eng qiziqarli ma'lumotlar yig'indisi olindi, Oybek o'z davrida mohir shoir va romanistligi, romanlarining realistic ifodalanganligi, Oybek she'riyati nihoyatda go'zal bo'lib, o'zining sodda, ravon va ifodali tilda, boy va rang-barang tasviriy vositalarda yaratilganligi bilan alohida ajralib turishi haqida ma'lumotlar keltirildi

Аннотация. Получен сборник интереснейших сведений об Ойбеке, сыне Мусы Таимухаммеда, Ойбек был искусственным поэтом и прозаиком своего времени, реалистическое выражение его романов, поэзия Ойбека чрезвычайно красива, ее простота, даны сведения, которые его отличают беглый и выразительный язык, богатые и красочные изобразительные средства.

Annotation. A collection of the most interesting information about Oybek, the son of Musa Tashmuhammed, was received. Oybek was a skilled poet and prose writer of his time, the realistic expression of his novels, Oybek's poetry is extremely beautiful, its simplicity, information is given that distinguishes him with a fluent and expressive language, rich and colorful visual means.

Kalit so'zlar: Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek, ijod yo'li, uy-muzeyi, roman, asarlar, tarixi.

Tarjimai holi: Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek 1905-yili Toshkent shahrida bo'zchi oilasida tug'ilgan. Oldin o'rta maktabda, 1922-1925 yillarda esa Toshkent ta'lim va tarbiya texnikumida tahsil olgan. So'ngra O'rta Osiyo Davlat universitetining ijtimoiy fanlar fakultetida o'qigan. 1930-yili o'qishni bitirib, oliy

maktablarda siyosiy iqtisoddan dars bergan.



1-rasm. Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek

Ijod yo'li: Oybek adabiyotga 1926-yili chop etilgan “Tuyg‘ular” she’riy to‘plami bilan kirib kelgan. Shoirning “Dilbar - davr qizi” (1931), “O‘ch” (1932), “Baxtigul va Sog‘indik” (1933), “Temirchi Jo‘ra”(1933) dostonlari o‘z davrining eng go‘zal she’riy solnomalaridir. Oybek tarixiy va zamonaviy mavzularda yigirmaga yaqin dostonlar yaratgan. Oybek she’riyati nihoyatda go‘zal bo‘lib, o‘zining sodda, ravon va ifodali tilda, boy va rang-barang tasviriy vositalarda yaratilganligi bilan alohida ajralib turadi.

Oybek mohir shoir bo‘lgani kabi yetuk romannavis hamdir. U yaratgan “Qutlug‘ qon”, “Navoiy”, “Ulug‘ yo‘l”, “Oltin vodiydan shabadalar”, “Quyosh qoraymas” kabi romanlari o‘zbek realistik romanchiligi taraqqiyotida muhim bir davrni tashkil etadi.

O‘zbek halqining 1916-yilgi milliy ozodlik qo‘zg‘oloni yozuvchining “Qutlug‘ qon” (1940) romanida zo‘r mahorat bilan realistik ifodalangan bo‘lsa, “Navoiy” (1944) romanida o‘zbek adabiyotida birinchi bo‘lib, ulug‘ shoir va mutafakkir Alisher Navoiy obrazini yaratdi. Uning “Oltin vodiydan shabadalar” (1949) asarida xalqimizning urushdan so‘ngi davr yaratuvchilik mehnati, “Quyosh qoraymas” (1958) romanida ikkinchi jahon urushi fojealari o‘z ifodasini topgan. Adibning “Ulug‘ yo‘l” (1977) asari esa “Qutlug‘ qon” romanining mantiqiy davomi bo‘lib, unda yozuvchi halq milliy ongingin shakllanishini mohirona tasvirlab bergan [1].

Oybek 1949-yilda Pokistonga sayohat qilgan. Adib qardosh xalq hayotini, fikr va tuyg‘ularini, kurash va intilishlarini “Pokiston xotiralari” ocherklari, qator

she'rlari, "Zafar va Zahro", "Haqgo'ylar" dostonlarida, nihoyat, "Nur qidirib" qissasida tasvirlangan. Adibning avtobiografik qissasi "Bolalik" 1963-yilda yaratilgan. Qissaning bosh qahramoni yosh Muso, ya'ni Oybekning o'zi bo'lган.

Oybek – tarjimon, iste'dodli shoir, yirik nosir bo'libgina qolmay, mashhur olim, publitsist, tanqidchi va tarjimon, davlat va jamoat arbobi hamdir. O'zbek kitobxoni Pushkining "Yevgeniy Onegin" she'riy romani, Lermontovning "Maskarad", "Molyerning "Tartuf" dramasi, shuningdek, antik adabiyoti namunalarini Oybek tarjimasida o'qishga muyassar bo'lган.

Oybek 1943-yilda O'zbekiston Fanlar akademiyasiga haqiqiy a'zo etib saylangan va 1950-yilgacha akademiyada ijtimoiy fanlar bo'limining raisi lavozimida faoliyat yuritgan. U yuqori malakali filologlar tayyorlashga katta hissa qo'shgan muhtaram ustozdir.

Oybekning el-yurt oldidagi xizmatlari munosib baholanib, unga O'zbekiston xalq yozuvchisi, Hamza nomidagi Respublika Davlat mukofoti, "Buyuk xizmatlari uchun" unvonlari berilgan. Yozuvchi asarlari o'zbek adabiyotining jahonaro shuhratini yanada oshirdi. Ustoz mahorati yosh yozuvchilar uchun ijod dorilfununiga aylandi. Oybekning o'lmas asarlari ma'naviy xazinamizdan mustahkam o'rin oldi va umumxalq mulki bo'lib qoldi.

Oybek 1968-yil 1-iyul kuni 63 yoshida vafot etgan. Vafotidan so'ng uning 20 jildlik to'la asarlari majmuasi nashr etilgan. Uning xotirasiga Toshkent metropoliteni stansiyasi nomlangan. Shuningdek, yozuvchining uy-muzeyi faoliyat yuritib keladi.

Tavalludiga 118 yil to'lган adib – Oybekning uy-muzeyiga sayohat 1905 yilning 10 yanvarida shoir, adib, jamoat arbobi — Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek tug'ilgan. Ijodkorni kelajak avlod ham yaqindan tanishi uchun asarlari qatori uy-muzeyi, undagi moddiy meros alohida qiymatga ega bo'ladi. «Gazeta.uz» shoirni xotirlash maqsadida uning uy-muzeyida bo'ldi.

Toshkentning «Govkush» mahallasida tug'ilgan Oybek kambag'al oiladagi yetishmovchilik, ochin-to'qin kunlar sabab bolalik, o'smirlik paytlari Narimonov nomli texnikum yotoqxonasida yashab, o'qiydi [2].



3-rasm. Muso Toshmuhammad o'g'li Oybekning Uy-muzeyi ko'rinishi Zarifaxonim bilan oila qurgach, Toshkentning to'rt dahasida, turli burchaklarida ijara uylarda kun kechiradi. 1940 yili hukumat fan va madaniyat xodimlariga ham yer taqsimlab bera boshlagach, darbadar shoir ham yerli bo'lib, uy soladi. Yunusoboddagi Iftixor 1-tor ko'chasi bo'y lab 3–4 daqiqa yurganda, chap tarafdan Oybek uy-muzeyi joylashgani haqida ma'lumot beruvchi maxsus belgi chiqadi. Shu belgi bo'y lab ketilsa, ikki qavatli 26-uy keladi. Uy peshtoqiga «Oybek uy-muzeyi» deb yozib qo'yilgan, darvozadan chap tarafga o'rnatilgan uchta lavhachada esa bu uyda yashab ijod qilganlar — akademik Oybek qatori uning rafiqasi, birinchi o'zbek kimyogari Zarifa Saidnosirova hamda ularning o'g'li, kimyo fanlari doktori Suyun Toshmuhammedov haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Uy-muzey 1980 yili — adib tavalludining 75 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan. U ikki — badiiy va memorial qismdan iborat. Katta darvozadan kirgach, chap tomonagi ayvonda 5 xonali binodan iborat badiiy qism keladi. Unda Oybekning hayot va ijod yo'lini aks ettirgan ekspozitsiyalar bor. Muzeyda 10 mingdan ortiq eksponat mavjud bo'lib, yiliga 13 mingga yaqin tashrifchi keladi.



4-rasm. Oybekning Uy-muzeyidagi eksponatlar

Oybekning bolalik va yoshlik davri bilan tanishtiruvchi birinchi xona. To‘rda rassom Boris Brinskix chizgan «Govkush» mahallasining 1960 yillardagi manzarasi aks etgan surat. Chap tarafdagи burchakda Oybek oilasida ishlatalgan uy-ro‘zg‘or buyumlari, eski maktab anjomlari o‘rin olgan bo‘lsa, devorda Oybek tavallud topgan uyning 1950 yillardagi ko‘rinishi tasvirlangan. Bolaligida ota-onasi bilan tushgan, akasi Isomhammad va singlisi Shafoatning 60-yillardagi suratlari, yana o‘scha paytlardagi ta’lim jarayonining taxminiy tasviri osig‘liq.



4-rasm. Oybekning Uy-muzeyidagi eksponatlar

O‘ng tomonda esa adib ta’lim olgan «Namuna» maktabi, Narimonov nomidagi texnikumning domla va talabalari tushgan fotosuratlar. Adib rafiqasi Zarifa Saidnosirova bilan shu texnikumda tanishadi. U 1925 yili o‘qishni tamomlab, O‘rta Osiyo davlat universitetining iqtisodiyot fakultetida o‘qish bilan bir paytda maktabda til va adabiyotdan dars bera boshlaydi [3].



5-rasm. Oybekning Uy-muzeyidagi eksponatlar

1927 yili esa o‘qishini Leningrad (hozirgi Sankt-Peterburg)dagи xalq xo‘jaligi institutiga ko‘chiradi. Ammo nam va zax havo Oybekning sog‘lig‘iga yomon ta’sir qilgach, 1930 yili Toshkentdagi o‘qishiga qaytib keladi. Orada 1929 yili Yaltada davolanadi. Zarifa Saidnosirova «Oybegim mening» kitobida ushbu davrni

quyidagicha keltirgandi:

«Oybekning 1927–1928 yillardagi och va yupun holda Leningradda yashashi beiz ketmadi: yuqorida aytib o'tganimdek, u sil kasalligini orttirdi. 1928–1929 o'quv yilida esa uning ne-ne zahmatlar bilan topgan puli ham sog'lig'ini tiklash uchun imkon bermadi. Kundan-kunga og'irlashib borayotgan xastalikni endi faqat ovqat bilan yengib bo'lmas edi. Leningradning nam, salqin ob havosi yengib bo'lmas bir mushkulot edi».



6-rasm. Oybekning Uy-muzeyidagi eksponatlar

Shuningdek, bu xonada adib ilk she'rlarining qo'lyozma va bosma nusxalari, uning ijodi shakllanishiga turtki bergen shoirlar va ularning kitoblari o'rinn olgan. Xona derazasidagi vitrajdan Oybek taxallusining ramziy ma'nosini ifodalaydigan oy tasviri Toshkent osmonidan mo'ralab turadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. <https://oz.sputniknews.uz/20231020/oybek-biografiya-40171629.html>
2. <https://www.gazeta.uz/oz/2023/01/10/oybek-museum/>
3. <https://bilimlar.uz/muso-toshmuhammad-ogli-oybek-hayoti ва ijodi/>